



<https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i04.148>

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA EVFEMIK BIRLIKLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAVSIFI

Nigorakhon Salimova Abdusalom qizi
Andijon Davlat Chet Tillari Instituti
2-bosqich magistranti
soliyeva.nigora@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida evfemik birliklarning struktural va semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda evfemizmlarning morfologik tuzilishi, leksik shakllanishi hamda nutqdagi kommunikativ vazifalari o‘rganildi. Ular monoleksemik va polileksemik turlarga ajratilib, asosiy struktur modellari aniqlanadi. Shuningdek, ikki til o‘rtasidagi farqli jihatlar ko‘rsatilib, evfemizmlarning nutqni yumshatish va ijtimoiy-madaniy me‘yorlarni saqlashdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: evfemizm, semantika, struktura, frazeologiya, qiyosiy tilshunoslik, ingliz tili, o‘zbek tili

Annotation: This article analyzes the structural and semantic features of euphemistic units in English and Uzbek languages. The study focuses on their morphological patterns, lexical formation, and communicative functions in discourse. Euphemisms are classified into monolexemic and polylexemic types, including words, phrases, and idiomatic expressions. The research identifies key structural models and highlights differences between the two languages. Results show that euphemisms play an important role in softening speech and maintaining cultural and social norms.

Keywords: euphemism, semantics, structure, linguistics, phraseology, Uzbek language, English language

Kirish. Til jamiyat va madaniyatning ajralmas qismi bo‘lib, inson tafakkuri, dunyoqarashi hamda ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Har bir til birliklari, xususan evfemizmlar, nutq jarayonida muhim kommunikativ vazifani bajaradi. Evfemizmlar orqali noqulay, qo‘pol yoki ijtimoiy jihatdan nomaqbul bo‘lgan tushunchalar yumshoq va

maqbul shaklda ifodalanadi. Shu jihatdan ular nutq madaniyati va etik me‘yorlarni saqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tilshunoslikda evfemizmlar nafaqat leksik hodisa, balki ijtimoiy, madaniy va psixologik omillar bilan chambarchas bog‘liq fenomen sifatida qaraladi. Ularning qo‘llanilishi nutq ishtirokchilarining kommunikativ maqsadi, ijtimoiy mavqei va madaniy qadriyatlariga bog‘liq holda shakllanadi. Shu sababli evfemik birliklarni qiyosiy o‘rganish turli tillarning lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida evfemik birliklarning struktural hamda semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi evfemizmlarning shakliy tuzilishi, morfologik modellari va nutqdagi funksional vazifalarini aniqlashdan iborat. Shu bilan birga, har ikki til materiallari asosida evfemizmlarning umumiy va farqli jihatlari yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Zamonaviy tilshunoslikda evfemizmlar masalasi turli ilmiy yo‘nalishlar doirasida keng o‘rganib kelinmoqda. Xususan, evfemik birliklar nutq madaniyati, pragmatika va lingvokulturologiya bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etiladi. Ilmiy manbalarda evfemizmlar ko‘pincha salbiy yoki noqulay mazmunni yumshatish, kommunikativ muhitni barqarorlashtirish va nutq etiketi talablariga moslashish vositasi sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, ularning shakllanishida ijtimoiy omillar, madaniy qadriyatlar va tarixiy taraqqiyot muhim rol o‘ynashi ta’kidlanadi.

Evfemizmlarning struktural xususiyatlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ularning so‘z, so‘z birikmasi va frazeologik birlik shaklida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Ayrim ilmiy ishlarda evfemik birliklarning morfologik tuzilishi, ya’ni affiksatsiya, qo‘shma so‘z hosil qilish va semantik ko‘chish hodisalari asosida yuzaga kelishi batafsil yoritilgan.


O‘zbek tilshunosligida ham evfemizmlar masalasi muayyan darajada o‘rganilgan bo‘lib, ularning milliy mentalitet, nutq odobi va madaniy qadriyatlar bilan bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan. Ingliz tilshunosligida esa evfemizmlar ko‘proq pragmatik va kommunikativ yondashuv asosida tahlil qilinadi. Bu esa ikki til o‘rtasida nafaqat lingvistik, balki lingvokulturologik farqlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotda evfemik birliklarning struktural va semantik xususiyatlarini aniqlash maqsadida bir nechta ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Avvalo, qiyosiy-tahliliy metod asosida ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlar o‘zaro solishtirildi va ularning umumiy hamda farqli jihatlari aniqlab olindi. Shuningdek, tasniflash (klassifikatsiya) metodi yordamida evfemik birliklar struktural jihatdan guruhlariga ajratildi. Bu jarayonda ularning monoleksemik va polileksemik turlari, shuningdek, morfologik modellari aniqlashtirildi. Statistik tahlil usuli orqali esa evfemizmlarning so‘z turkumlari bo‘yicha taqsimlanishi va qo‘llanish darajasi o‘rganildi.

Natijalar. Tadqiqot jarayonida ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemik birliklarning struktural hamda semantik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, har ikki tilda evfemizmlar keng qo‘llanilib, ular nutqning yumshoqligini ta‘minlash va ijtimoiy-etik me‘yorlarni saqlashda muhim vosita hisoblanadi. Evfemik birliklar asosan uchta asosiy ko‘rinishda namoyon bo‘ldi: so‘z shaklida, so‘z birikmasi shaklida hamda frazeologik birlik shaklida.

1-jadval

Evfemizm konsepti verbalizatorlarining struktur-semantik tuzilishi



Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillarida evfemizmlar monoleksema va polileksemalarning quyidagi 54 ta tayanch modellari aniqlandi:

2-jadval

Ingliz va o‘zbek tillarida evfemizmlar monoleksema va polileksemalarning tayanch modellari:					
N+Suf	N+V	Adj+N+Suf	Adj+N	Adj+N+N	N+V
Adj+Suf	N+V+Suf	Adj+N+V+Suf	N+suf	V+suf+suf	Adj+N+V
V+Suf	V+V+Suf	Adj+N+Suf	Pref + N	N+suf	N+V
N+Suf	N+N	N+V+Suf	N+V+N+Adv.	V+pred	Adj+Suf+Adj

V+Suf	N+N+Suf	Adv+V+Suf	N+Suf	N+suf	Adj+Suf+V+Suf
Pref+Adj j	Adj+N=N	N+suf	N+N Adj+N	V+suf	Adj+Suf+N+Suf
V+N	V+Prep	V+Pronoun+N	V+Prep+Adj	V+N+Prep+N	V+Prep+N
V+Prep +	V+N+Prep	N+Prep+N	V+Adj+N	N+V	Adj+N
Adj+N					
N+V	N+N+V	N+V+Adj	Adj+N+N+V	N+V+N+V	N+Num+V

Yuqoridagi jadvalda ko‘rib turganimizdek, evfemizmlarning morfologik xususiyatiga ko‘ra yasama leksemalar har ikki tilda ot, sifat, ravish va fe‘l so‘z turkumlariga mansub. Ingliz tilida ot so‘z turkumi va o‘zbek tilida frazeologik birliklar dominantlik xususiyatiga ega (*ingliz tilida 31,7%; o‘zbek tilida 34,9%*); undan keyingi o‘rinni ingliz tilida so‘z birikmalari va o‘zbek tilida esa fe‘l so‘z turkumi (*ingliz tilida 20,2%; o‘zbek tilida 22,2%*) turadi. Bundan tashqari, ingliz tilida ravish leksemalar kam qo‘llanilishi va o‘zbek tilida ravish suffiksli evfemizmlar mavjud emasligi aniqlandi. Shuningdek, ravish yasama so‘zlar va qo‘shma leksemalar o‘zbek tilida kuzatilmadi. Lekin, har ikki tilda evfemizm konsepti verballashuvida eng faoli ot so‘z turkumi ekanligi ma‘lum bo‘ldi.

Ingliz va o‘zbek tillarida evfemik birliklarning shakl va ma‘no munosabati asosida **ma‘nodosh** hamda **shakldosh evfemizmlar**; bir yoki ko‘p ma‘no ifodalashiga ko‘ra **monosemantik** va **polisemantik evfemizmlar**; polisemantik evfemalardagi ko‘chma ma‘no asosida **metaforik**, **metonimik**, **sinekdoxik**, **vazifadoshlik**, **kinoyaviylik** kabi turlarga ajratish maqsadga muvofiq, ular quyidagicha:

Tabulashtirilgan, nutqiy obyektlarni tasvirlash, uning evfemik vositalarini aniqlashga imkon beradi, ya‘ni bir tabu tushuncha bir va undan ortiq evfemik sinonimlarning shakllanishiga sabab bo‘ladi va sinonimiyaning boyib borishi uchun tunganmas manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ma‘lumki, keyingi yillarda o‘zbek tili sinonimlari va ularning uslubiy xususiyatlari, nutqiy qimmatiga doir ko‘pgina ilmiy to‘plamlar, maqolalar, izohli lug‘atlar yuzaga keldi. Masalan, Sh.Rahmatullayev “Frazeologik sinonimlarda stilistik bo‘yoq” masalasini talqin qilish munosabati bilan sinonimiya uyalarini ijobiy va salbiy mundarijali frazeologik birliklarga ajratadi va quyidagicha yozadi: “Salbiy voqelikni anglatuvchi sinonimiya uyalarining ba‘zisi evfemizmdir”. Masalan, *dunyodan o‘tmoq*, *ko‘zini yummoq*, *dunyodan ketmoq* sinonimiya uyasida har uch ibora evfemizm bo‘lib, atalayotgan voqelikning salbiy ta‘sirini yumshatadi¹. Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, sinonimiya hodisasi so‘zlarda, so‘z birikmalarida, frazeologik birliklarda, gaplarda, maqollarda, matallarda, aforizmlarda mavjud

bo‘lishi bilan bir qatorda evfemizmlar sathida ham kuzatiladi. Shunga qaramay, sinonimiyani o‘rganish, xususan, uni til sathiga munosabati, shu bilan bog‘liq masalasi hali o‘z yechimini topmagan. Mana shu masala ayrim tilshunoslar, xususan, H. Shamsuddinovning e‘tiborini jalb etgan. Muallifning ta‘kidiga asosan sinonimiya hodisasi intralingvistik tarzda o‘rganilganligi, ekstralingvistik amallarga yetarli e‘tibor berilmaganligi; mazkur masala nomlash bilan bog‘liq o‘z tahlilini topmaganligi, masalan, yangi so‘zning *yaraqlagan, moyi artilmagan, ohori to‘kilmagan, chillasi chiqmagan, tesha tegmagan, siyohi qurib bitmagan* kabi qatorlari leksik sinonimlar lug‘atiga kiritilmaganligi, zotan bu hodisalar funksional-semantik birlik bo‘lganligidan, ularni sinonimlar lug‘atining bir turi sifatida ajratish va funksional-semantik sinonimlar, deb atash lozimligini, bizningcha ham to‘g‘ri taklif qilgan. Shuningdek, funksional-semantik sinonimlarning, asosan nutqiy akt mahsuli ekanligini, bu vazifada so‘z, uyushiq bo‘laklar, o‘xshatishlar, sodda gap, qo‘shma gaplar qo‘llanishi ta‘kidlagan holda fikrlarini misollar asosida dalillaydi.

Darhaqiqat, tilshunos olim funksional-semantik sinonimlar bosh tushuncha (denotatni) qayta nomlab, (ajoyib o‘rnida *qiyomat*, sermashaqqat o‘rnida *igna bilan quduq qazigandek*, paxtakorlar o‘rnida *oq oltin ustalari*, qo‘rqoq o‘rnida *yuragi yo‘q*, ikki yuzlamachi o‘rnida *tili boshqa-yu, dili boshqa* kabi), uni ekspressiv ifoda vositalari bilan boyitishni, ma‘lum ma‘noda leksik sinonimlar ustiga qatlamlangan sinonimiya sifatida baholanishi kerakligini ham uqtirgan.

Ta‘kidlanayotganidek, evfemizm tilning nutqiy qatlamida sodir bo‘ladigan jarayon qayta nomlash bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, to‘la ma‘noda uslubiy ma‘nodoshlik qatorini tashkil etishi bilan xarakterlanadi. U millatning etik-estetik didi, milliy ruhi, odobi va nazokatining lisoniy aksi bo‘lib, muomala madaniyatining o‘ziga xosligini ham ko‘rsatadi. Masalan, o‘zbek tilida birgina o‘lim bilan bog‘liq evfemik vositalarning 300ga yaqin varianti topilganligi³, tadqiqot jarayonida ingliz tilida esa o‘lmoq so‘zining 410 ta evfemizmlari mavjudligi aniqlandi. Bu esa evfemizmlarning turli vaziyat, matn va zamonda qo‘llanilishiga xoslangan turidan foydalana olish imkonini beradi va nutqning ijobiylik sifatlarini oshiradi. Mavjud izlanishlarga ko‘ra o‘lim bilan bog‘liq evfemizlar, dastavval, mazmuniga ko‘ra *diniy* va *dunyoviy* evfemizmlarga ajratiladi. Tilshunos A. Omonturdiyevning ta‘kidicha: “diniy evfemizmlar ko‘proq jonning mavjudligi, tanadan chiqib ketishi, u dunyoga – Xudo huzuriga borishi, jannat yoki do‘zaxdan joy olishi kabi tushunchalar asosida bo‘lgan”⁴. Tadqiqot jarayonida ingliz tilida o‘limni ifodalovchi evfemizmlarning uchta: *juda ham muloyim o‘lim evfemizmlari, kulguli o‘lim evfemizmlari* hamda *eski ingliz tilida foydalanilgan o‘lim evfemizmlari* kabi guruhlari mavjudligi aniqlandi. O‘lim bilan bog‘liq evfemizmlarning aksariyati dindorlar nutqiga xosdir, xususan:

– **ingliz tilida:** *to pass away, has gone over to the other side, was ushered to the angels, graduated to phase two of God's eternal plan, traded to the Angels, gave up the ghost, called to*

heaven, angels carried him/her away, with Christ, with God, with Jesus, with the Angels, became a handmaiden of Gods, went fishing with Christ

o‘zbek tilida: jon bermoq, ajalga omon bermoq, mangu uyquga ketmoq, Allohning amrini bajarmoq, ya’ni olamdan o‘tmoq, boqiy dunyoga shoshmoq, Alloh rahmati bilan bog‘lanmoq, marhum bo‘lmoq, yuzga tuproq niqobini tortmoq, o‘lim komiga bormoq, oxiratga ketmoq, rixlatga safar qilmoq va sh.k. Masalan, “Agar tirik bo‘lsa, xudo panohida asrasin, agar olamdan o‘tib ketgan bo‘lsa xudo rahmatiga olgan bo‘lsin”⁶.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda ingliz va o‘zbek tillarida evfemik birliklarning struktur va semantik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, evfemizmlar har ikki tilda ham nutqning madaniyligi, etik me’yorlarga mosligi hamda kommunikativ yumshoqligini ta’minlovchi muhim lingvistik vosita hisoblanadi. Tahlillar asosida evfemik birliklar monoleksemik va polileksemik tuzilishga ega bo‘lib, ular so‘z, so‘z birikmasi va frazeologik birlik shaklida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Ingliz tilida ot so‘z turkumiga mansub evfemizmlar ustunlik qilsa, o‘zbek tilida frazeologik evfemizmlar ko‘proq qo‘llanilishi kuzatildi. Shuningdek, fe’l va sifat asosidagi evfemik birliklar ham muhim o‘rin tutadi.

Qiyosiy tahlil natijalari ikki til o‘rtasida evfemizmlarning struktural modellari o‘xshash bo‘lsa-da, ularning semantik ifodalanishi va qo‘llanish chastotasida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, o‘zbek tilida diniy va madaniy omillar evfemizmlarning shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatsa, ingliz tilida pragmatik va kommunikativ omillar ustuvor hisoblanadi. Umuman olganda, evfemizmlar nafaqat lingvistik hodisa, balki ijtimoiy-madaniy jarayonlarning ham muhim ifodachisi bo‘lib, ular tilning rivojlanishi va nutq madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari. – Toshkent: Fan, 1966.
2. Omonturdiyev A. O‘zbek nutqining evfemik asoslari. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000.
3. Omonturdiyev A. Bir so‘z lug‘ati. – Termiz: Jayhun, 1996.
4. Shamsuddinov H. So‘zlarning funksional-semantik sinonimlari // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1995. №1.
5. Shamsuddinov H. So‘zlarning evfemik funksional-semantik sinonimlari // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1997. №6.